

TRANSPORT XIZMATLARI KO'RSATISHNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI

Rajabov Qurbon Sulaymonovich

Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi.

Annotatsiya

Ushbu maqola transport xizmatlari ko'rsatishning rivojlanish xususiyatlari va tamoyillariga bag'ishlangan bo'lib, transport xizmatlari ko'rsatishning tashkiliy (xavflilik, qonuniylik, uzviylik, tizimlilik), iqtisodiy (samaradorlik, raqobat, ochiqlik, barqarorlik), texnik (innovatsion, ekologik, integratsiyalashuv), iste'mol (qulaylik va sifat, mijozga yo'naltirilganlik, inklyuziv) integratsiyalashgan tamoyillar tizimi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: transport, transport xizmatlari, tashkiliy-iqtisodiy, texnik, iste'mol, innovatsion transport texnologiyalari, boshqaruvi modellari.

Аннотация

Данная статья посвящена особенностям и принципам развития транспортных услуг, в ней рассматривается интегрированная система принципов оказания транспортных услуг, включающая организационные (безопасность, законность, преемственность, системность), экономические (эффективность, конкуренция, открытость, устойчивость), технические (инновационность, экологичность, интеграция) и потребительские (удобство и качество, клиентоориентированность, инклюзивность) принципы.

Ключевые слова: транспорт, транспортные услуги, организационно-экономический, технический, потребительский, инновационные транспортные технологии, модели управления.

Abstract

This article is devoted to the features and principles of transport services development, examining an integrated system of transport service provision principles, which encompasses organizational (safety, legality, continuity, systematicity), economic (efficiency, competition, transparency, sustainability), technical (innovation, environmental compatibility, integration), and consumer-oriented (convenience and quality, client-centricity, inclusivity) principles.

Keywords: transport, transport services, organizational-economic, technical, consumer-oriented, innovative transport technologies, management models.

KIRISH

Xalqaro darajada aholining transport xizmatlariga bo'lgan talabining keskin o'sishi, logistika tizimining optimal harakatini ta'minlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar real vaqt ichida raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida transport xizmatlari faoliyatini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra "Global logistika

bozori hajmi 2025 yilda 11,23 trillion AQSH dollarini tashkil etadi va 2034 yilga kelib 23,14 trillion AQSH dollarini tashkil etishi prognoz qilinmoqda”¹. Bugungi kunda jahon logistika xizmatlari bozorida buyurtmalar va zaxiralarni tashish bilan bog‘liq transport xizmatlari asosida tashkil qilish tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

Xususan, jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, “jahon transport xizmatlarining yalpi ichki mahsulot tarkibidagi miqdori 4,3 trillion AQSH dollari hajmida 6,9 foiz baholanib, yiliga 110 milliard tonna yuk va 1 trillion dan ortiq yo‘lovchilar tashilgan, transport infratuzilmasida band bo‘lgan xodimlar soni 100 million kishini tashkil etadi”². Dunyoda zamonaviy yuk va yo‘lovchi tashish texnologiyalari muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Shu boisdan transport tizimini innovatsion rivojlanishini ta’minlash jahon mamlakatlarda “transport-tranzit” va “transport-logistika” salohiyatidan samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida iqtisodiyotning muhim tarmog‘i sifatida transport kommunikatsiyalarini jadal rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada, 2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ham “transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish, temir yo‘l infratuzilmasini elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish va avtomobil yo‘llari tarmog‘ini jadal rivojlantirish, transport sohasida tashqi savdo uchun “yashil koridorlar” hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish va tranzit yuk hajmini 15 million tonnaga yetkazish”³ kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarning izchil va samarali bajarilishi transport xizmatlarini ko‘rsatishning iqtisodiy faoliyatini monitoring qilish va sohadagi muammolarning ta’sir darajasini aniqlash, transport xizmatlarini ko‘rsatishni yanada rivojlantirishning strategik maqsadlarini belgilash, sohani takomillashtirishning uslubiy ta’minoti va tamoyillari, tashkiliy-iqtisodiy konsepsiyasi asosida har bir yo‘nalishning o‘ziga xos ko‘rsatkichlarini tizimlashtirish, transport xizmatlarini ko‘rsatish sifatini oshirishga ta’sir etish orqali uning samaradorligini baholash ko‘rsatkichlarining o‘zaro bog‘liqligi asoslash, zamonaviy yetkazib berish xizmatini ko‘rsatuvchilar tajribasidan foydalanib, davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini va transport xizmatlarini ko‘rsatishning innovatsion modellarini joriy etish orqali tizimni iqtisodiy rivojlantirish yo‘nalishlarini aniqlash dolzarb ilmiy tadqiqotlarni talab etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Italiyalik iqtisodchi olim Marco Percoco transport iqtisodiyoti sohasida keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borgan. Uning ishlarida transport infratuzilmasining iqtisodiy rivojlanishga ta’siri, hududiy iqtisodiy integratsiya jarayonlarida transport kommunikatsiyalarining roli, shuningdek transportning atrof-muhitga ta’siri masalalari o‘rganilgan. Percoco, transport infratuzilmasi iqtisodiyot uchun

¹Logistics Market Size, Share, and Trends 2025 to 2034. Precedence Research. <https://www.precedenceresearch.com/logistics-market>

² The World Bank: World Development Indicators. <http://data.worldbank.org/indicator>

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevral PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

multiplikator samarasini yaratishi va bu orqali yalpi talab oshishiga, ishsizlik darajasi pasayishiga hamda iqtisodiy o‘shishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlagan [1].

Shvetsiyalik olim Jonas Eliasson transportni rejalashtirish va transport siyosatini ishlab chiqish sohasida yetakchi mutaxassislardan biri hisoblanadi. Uning ilmiy ishlari transport tarmoqlarini modellashtirish, transport siyosati samaradorligini baholash, shuningdek transport sohasida qaror qabul qilish jarayonlarini o‘rganishga qaratilgan. Unga ko‘ra, shahar transport tizimlarining barqaror rivojlanishi, transport xizmatlarini iste’molchilar ehtiyojlariga moslashtirish va transport qarorlarini qabul qilishda iqtisodiy omillarning ahamiyatini tahlil qilgan [2].

Fransiyalik transport sotsiologlari va iqtisodchilari vakillaridan Regina Florio transport xizmatlarining ijtimoiy ahamiyatini tadqiq etgan bo‘lib, uning ishlarida transport xizmatlarining aholining turli qatlamlari uchun mavjudligi, transport tizimlarining inklyuzivligi, shuningdek transport va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar masalalari tahlil qilingan. Transport xizmatlari aholining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini, transport imkoniyatlari cheklanganligi esa ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi mumkinligini asoslab bergan [3].

Germaniyalik transport injeneri va rejalashtiruvchi olim Klaus Barthel o‘z tadqiqotlarida transport logistikasi va yuk tashish sohasidagi innovatsion yondashuvlarni o‘rgangan. Uning ilmiy ishlari yuk tashish tizimlarining samaradorligini oshirish, logistika markazlarini optimallashtirish va transport xizmatlari sifatini yaxshilash masalalariga qaratilgan. Transport tizimlarida raqamli texnologiyalarni joriy etishning ahamiyatini ta’kidlagan hamda transport logistikasini boshqarishda zamonaviy axborot tizimlaridan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqqan [4].

Rossiyalik olim Boris Lapidus temir yo‘l transporti sohasida yetakchi mutaxassis sifatida tanilgan bo‘lib, uning tadqiqotlarida Rossiya va MDH mamlakatlari temir yo‘l tizimlarining rivojlanish strategiyalari, temir yo‘l transporti xizmatlari bozorini tartibga solish mexanizmlari, shuningdek temir yo‘l transportining raqobatbardoshligini oshirish masalalari o‘rganilgan. Temir yo‘l transporti xizmatlarini diversifikatsiyalash, yuqori tezlikdagi temir yo‘l tizimlarini rivojlantirish va temir yo‘l logistikasini modernizatsiya qilish bo‘yicha nazariy konsepsiyalarni ishlab chiqqan [5].

Ukrainalik transport bo‘yicha mutaxassis Natalya Negorelova transport xizmatlarini narxlash strategiyalari va transport narx siyosatining iqtisodiy samaradorligi masalalarini chuqur o‘rgangan. Uning ilmiy ishlarida transport narxlash modellarining nazariy asoslari, transport narxlarining bozor konyunkturasiga bog‘liqligi, shuningdek transport xizmatlari narxlarini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari tahlil qilingan. Uning fikricha, transport xizmatlari narxlarini shakllantirishda moslashuvchan yondashuvlarni qo‘llash va iste’molchilar segmentatsiyasiga asoslangan narxlash strategiyalarini rivojlantirish zarurligini ta’kidlagan [6].

Rossiyalik Alexander Misharin transport infratuzilmasini rivojlantirish va transport loyihalarini boshqarish bo‘yicha mutaxassis hisoblanadi. Uning tadqiqotlarida transport infratuzilmasiga investitsiyalar samaradorligi, xalqaro

transport koridorlarini rivojlantirish strategiyalari, shuningdek davlat-xususiy sheriklik asosida transport loyihalarini amalga oshirish masalalari o'rganilgan. Yevrosiyo transport tizimining integratsiyasi, transport sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish va transport infratuzilmasi qurish uchun moliyaviy mexanizmlarni diversifikatsiyalash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqqan [7].

Belaruslik transport logistikasi sohasidagi olim Marina Dmitrieva logistika markazlarini rivojlantirish, transport-ekspeditorlik xizmatlari bozorini takomillashtirish va transport logistikasi sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish masalalarini o'rgangan. Uning ilmiy ishlarida Belarus va boshqa MDH mamlakatlarida transport logistikasi tizimlarining rivojlanish tendensiyalari, transport korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish omillari, shuningdek transport logistikasida innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Bu borada transport logistikasi tizimlarini integratsiyalash va logistika jarayonlarini optimallashtirish orqali transport xizmatlari sifatini oshirish hamda xarajatlarni kamaytirish mumkinligini ta'kidlagan [8].

O'zbekistonlik olim B.Sh.Safarov transport va turizmni rivojlantirish yo'nalishida tadqiqotlar olib borgan. Uning "Turizmدا transport xizmatlari" o'quv qo'llanmasida turizmni rivojlantirishda transport tizimining o'rni va ahamiyati, turistlar uchun transport xizmatlarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari hamda O'zbekistonda transport-turizm infratuzilmasini takomillashtirish masalalari o'rganilgan [9].

O'zbekistonlik transport iqtisodiyoti sohasida G.B.Ibragimov transport tizimining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati, transport xizmatlarini tartibga solish mexanizmlari va transport sohasiga investitsiyalarni jalb qilish masalalarini o'rgangan. Uning tadqiqotlarida O'zbekiston transport tizimining xalqaro transport kommunikatsiyalariga integratsiyalashuvi, transport xizmatlari bozorini liberallashtirish, shuningdek transport korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari tahlil qilingan [10].

O'zbekistonlik logistika va transport menejmentini o'rgangan A.K.Yusupov logistika tizimlarini rivojlantirish, transport-logistika markazlarini tashkil etish va transport xizmatlari samaradorligini baholash masalalarini tadqiq etgan. Uning ilmiy ishlarida O'zbekistonda transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish strategiyalari, yuk tashish jarayonlarini optimallashtirishning zamonaviy usullari, shuningdek transport logistikasida axborot texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlari tahlil qilingan [11].

D.A.Kurbanova esa, transport xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirish, transport kompaniyalarining marketing strategiyalari, shuningdek transport xizmatlari sifatini baholash usullari o'rganilgan. Ayniqsa, O'zbekistonda transport xizmatlari bozorining segmentatsiyasi, transport xizmatlari brending strategiyalarini ishlab chiqish va mijozlar bilan munosabatlarni boshqarishning zamonaviy usullarini joriy etish bo'yicha tavsiyalar bergan. Uning ishlarida transport xizmatlari sifatini oshirish orqali mijozlar qoniqishini ta'minlash va bozorda barqaror raqobat afzalliklariga erishish mumkinligi asoslab berilgan [12].

METODOLOGIYA

Maqolada ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, sohaga oid mavjud adabiyotlarni tahlil qilish, Prezidentimizning farmon va qarorlari, qonun hamda tadqiqot mavzusiga oid xorijiy va mahalliy adabiyotlardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Transport xizmatlari iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Transport tizimi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi qon tomir vazifasini bajaradi. Uning holati va samaradorligi butun iqtisodiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda transport xizmatlari bozori dinamik tarzda rivojlanmoqda va global raqobat sharoitida yangi tendensiyalar, innovatsion yondashuvlar hamda texnologik yechimlar paydo bo'lmoqda.

Xususan, transport xizmatlari tarixi insoniyat sivilizatsiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, qadimgi davrlardan boshlab savdo yo'llari, dengiz portlari va karvon yo'llari mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni ta'minlagan. Zamonaviy transport tizimlarining rivojlanishi sanoat inqilobi davriga to'g'ri keladi va bu davrda temir yo'l va bug' kemalar paydo bo'lgan. XX asrda avtomobil va havo transportining jadal rivojlanishi transport xizmatlari sohasining yanada kengayishiga olib keldi. Bugungi kunda transport xizmatlari bozori dinamik tarzda rivojlanib, zamonaviy o'zgarishlar qatoriga raqamlashtirish, ekologik xavfsizlik talablarining kuchayishi, iste'molchilar talablarining o'zgarishi, yo'lovchi va yuk tashish tizimlarining integratsiyasi kabilarni kiritish mumkin.


Tadqiqotlar ko'rsatishicha, transport xizmatlarini ko'rsatish ko'p qirrali bo'lib, u yuk tashish, yo'lovchi tashish, logistika va infratuzilma xizmatlarini o'z ichiga oladi. Ushbu xizmatlar turlari iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalari uchun muhim hisoblanadi. Chunki, ular ishlab chiqarish zanjirining uzluksizligini ta'minlaydi, bozorlarning kengayishiga hissa qo'shadi va mintaqaviy hamda xalqaro iqtisodiy integratsiyani rivojlantiradi.

Transport xizmatlari sohasining yana bir muhim jihati milliy iqtisodiyotning strategik tarmog'i hisoblanadi va davlat tomonidan tartibga solinishi bilan ahamiyatlidir. Transport xizmatlarining rivojlanish orqali sifatini yaxshilash mamlakatning global raqobatbardoshligini belgilaydigan omil hisoblanadi. Darhaqiqat xalqaro savdo, turizm va investitsiya oqimlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, transport sohasida xizmatlarini ko'rsatish tamoyillari soha iqtisodiyotining fundamental asoslarini tashkil etib, global iqtisodiy tizimning konvergentsiyasi va transnatsional logistik zanjirlarning diversifikatsiyasi sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy transport infratuzilmasining institutsional va arxitekturaviy rivojlanish paradigmasi transport xizmatlarining samaradorligini oshirish hamda resurslarni optimal allokatatsiyasini ta'minlash uchun tizimli yondashuvni talab etadi. Transport xizmatlarini ko'rsatish tamoyillarining strukturaviy-funksional modeli sohani strategik rejalashtirish, boshqaruvning iqtisodiy mexanizmlarini diversifikatsiyalash, tarif siyosatini liberallashtirish hamda

investitsion muhitni shakllantirish jarayonlarida muhim metodologik baza sifatida xizmat qiladi.

Transport xizmatlarini ko'rsatish tamoyillari komponentlarining integratsiyalashgan ekosistemi tashkiliy-institutsional, iqtisodiy-moliyaviy, texnologik-innovatsion hamda iste'molchiga yo'naltirilgan vektorial kategoriyalarni o'z ichiga oladi. Bu tamoyillar transport xizmatlari sohasida barqaror rivojlanishni ta'minlovchi mehnat, kapital va boshqa resurslari allokatsiyasining muvozanatli konsentratsiyasi uchun zaruriy institutsional muhitni yaratadi. Transport xizmatlari bozori konyunktural sharoitida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar sohadagi multiplikativ samarani oshirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish zanjirlarini optimallashtirish hamda transport operatsiyalari tranzaksion xarajatlarini minimallashtirishga qaratilgan interaktiv paradigmada faoliyat ko'rsatadi (1-rasm).



1-rasm. Transport xizmatlari ko'rsatishning integratsiyalashgan tamoyillar tizimi¹

Ko'rinib turibdiki, transport xizmatlari ko'rsatish tamoyillari tizimi transformatsion iqtisodiyot sharoitida multiplikativ samara hosil qiluvchi komponentlardan iborat konseptual-metodologik konstruksiya hisoblanadi. Bu tamoyillar asosida shakllantirilgan transport xizmatlari infratuzilmasi ekonometrik parametrlar jihatidan yuqori indikatorlarga ega bo'lib, soha potensialining konvergent rivojlanishini ta'minlaydi va global logistik tizimlar bilan integratsion aloqalarni optimallashtirishga xizmat qiladi. Transport xizmatlarini ko'rsatishning tashkiliy tamoyillari sohadagi operatsion faoliyatning xavfsizlik determinantlarini, institutsional-huquqiy regulyativ mexanizmlarning immanent xususiyatlarini hamda

¹ Muallif ishlanmasi.

transport tizimining strukturaviy-funksional arxitekturasini ta'minlovchi asosiy parametrlarni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy tamoyillar prizmasi orqali transport xizmatlari bozorini tahlil qilganda, samaradorlik, raqobat muhitining liberallasuvi va barqaror iqtisodiy o'sish vektorlari dominantlik kasb etishi aniq bo'ladi. Mazkur tamoyillar transport operatsiyalari tranzaksion xarajatlarining optimallashtirish implikasiyalari, narx shakllanish mexanizmlarining tarif regulyatsiyasi va transport korxonalarining rentabellik indikatorlarining transformatsiyasiga ko'maklashuvchi muhim faktorlar sifatida namoyon bo'ladi. Texnologik tamoyillar – innovatsion implementatsiya, ekologik imperativlar va integratsion konsepsiyalar – transport tizimlarini modernizatsiyalash, ekzogen ekologik eksternaliyalarni internalizatsiyalash hamda global transport koridorlari bilan konvergent munosabatlarni harmonizatsiyalash uchun zaruriy funksional mexanizm hisoblanadi.

Iste'molchi tamoyillari, xususan sifat parametrlari optimizatsiyasi, mijoz-sentrik yondashuv va inklyuzivlik paradigmasi, transport xizmatlari terminal iste'molchilari talablariga adaptatsiyalashuvini ta'minlashda imperativ ahamiyat kasb etadi. Ushbu tamoyillar transport xizmatlari qiymat zanjirida mijoz qoniqish indikatorlarini maksimallashtirishga, xizmat ko'rsatish sifatini stratifikatsiyalashga hamda transport xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini demografik va sotsial-iqtisodiy segmentlar kesimida diversifikatsiyalashga yo'naltirilgan. Zamonaviy transport ekosistemi strukturasi bu tamoyillar substantsial o'rin egallaydi, chunki transport sektori xizmatlari samaradorligining terminal indikatorlari mijozlar preferensiyalari va iste'molchi utilit funksiyasiga korrelyativ bog'liq.

Transport xizmatlari ko'rsatish tamoyillarining kompleks implementatsiyasi nafaqat transport sektorining endogen rivojlanishiga, balki iqtisodiyotning boshqa segmentlarida ham eksterritorial effektlar hosil qilishga imkon beradi, bu esa milliy iqtisodiy sistemaning integratsion potensialini oshiradi. Mazkur tamoyillarni milliy transport strategiyalari konsepsiyasiga inkorporatsiya qilish, transport sektori davlat siyosatining institutsional arxitekturasini shakllantirishda va transport-kommunikatsion infratuzilma rivojlanishining strategik vektorlarini belgilashda metodologik bazis sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, transport xizmatlari ko'rsatish tamoyillari uchlamchi strukturaga ega bo'lgan samarali transport ekosistemi shakllanishida hamda transport xizmatlari raqobatbardoshligini milliy va global transport-logistika bozorida oshirishda katalitik funktsiyani bajaradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Transport xizmatlari zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bu borada sohada raqamlashtirish, ekologik tendensiyalar va yangi biznes modellarining paydo bo'lishi transport xizmatlari ko'rsatish sohasining evolyutsion rivojlanishiga olib kelmoqda. Buni tadqiq qilingan obyekt misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, transport xizmatlarini ko'rsatish sohasining kelajakdagi rivojlanishi quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

- Transport xizmatlarining raqamli transformatsiyasi.

- Ekologik toza transport tizimlarining joriy etilishi.
- Transport va logistika xizmatlarining integratsiyalashuvi.
- Innovatsion transport texnologiyalarining qo'llanilishi.
- Xalqaro va mintaqaviy transport koridorlarining rivojlantirilishi.

Buning isboti sifatida, transport xizmatlarini rivojlantirish strategiyasi kompleks yondashuv asosida ishlab chiqilishi va transport infratuzilmasining barcha elementlarini qamrab olishi zarur bo'ladi. Shu bilan birga, transport xizmatlarining samaradorligini oshirish, ularning raqobatbardoshligini ta'minlash, foydalanuvchilar uchun qulaylik va xavfsizlikni ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Percoco M. Environment and Planning A.: – 2010. – Vol. 42, № 3. – P. 717-734.
2. Eliasson J. Transport planning and policy – interactions between science and practice. Transportation Research Procedia. – 2016. – Vol. 8. – P. 1-4.
3. Florio R. Inclusive mobility: transport policy and social equity. Journal of Transport Geography. – 2021. – Vol. 92. – P. 103023-103035.
4. Бартель К. Оптимизация интермодальных транспортных систем и логистических центров. – Гамбург. Transport Research. 2020. – 312 с.
5. Лapidус Б. М. Стратегия развития железнодорожного транспорта. – Москва. РУТ, 2015. – 286 с.
6. Негорелова Н.В. Ценообразование на транспортные услуги в условиях рыночной экономики. – Киев. КНУ, 2013. – 196 с.
7. Мишарин А.С. Инновационное развитие транспортной инфраструктуры в условиях глобализации. – Москва. Экономика, 2016. – 278 с.
8. Дмитриева М.А. Развитие транспортно-логистических услуг в условиях Евразийской интеграции. – Минск. БНТУ, 2019. – 214 с.
9. Сафаров Б.Ш. Туризмда транспорт хизматлари. – Тошкент. Тафаккур, 2019. – 147 б.
10. Ибрагимов Г.Б. Ўзбекистон транспорт хизматлари бозорини либераллаштириш ва тартибга солиш механизмлари. Иқтисодиёт ва таълим. – 2021. – № 3. – Б. 45-52.
11. Юсупов А.К. Ўзбекистонда транспорт логистикаси тизимларини ривожлантириш. – Тошкент. Иқтисодиёт. 2018. – 156 б.
12. Курбанова Д.А. Ўзбекистонда транспорт хизматлари сифатини бошқариш тизимларини такомиллаштириш. Транспорт муаммолари. – 2020. – № 2. – Б.
13. Adizov, B., Tokhirov, J., & Hamidov, S. (2024). Trends in employment of graduates of ecology education in higher education. In E3S Web of Conferences (Vol. 587, p. 05012). EDP Sciences.
14. Hamidov, S., Tokhirov, J., & Adizov, B. (2024). Processes of management of competitiveness of ecotourism destinations and methodology of its assessment. In E3S Web of Conferences (Vol. 587, p. 05021). EDP Sciences.

15. Tokhirov, J. R. (2021). INTERACTION FACTORS FOR IMPROVING THE QUALITY AND EFFICIENCY OF EDUCATIONAL SERVICES BASED ON PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP. In WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS (pp. 63-65).

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentinig 2022-yil 28-fevral PF–60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**